

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tomonidan o'rta va umumta'lim maktablari, fizika fani o'qituvchilariga fizika yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida institutning fizika fani o'qituvchisi K.Pardayeva tomonidan Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Denov tuman 1-son ixtisoslashtirilgan maktabida o'tkazgan "Quyosh fotoenergetikasidan foydalanishning ahamiyati" mavzusidagi ochiq mahorat darsi

BAYONNOMASI

2024 yil 16 sentabr

Denov tumani

Qatnashdilar:

"Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrası o'qituvchilari, Denov tuman 1-son ixtisoslashtirilgan maktabning fizika fani o'qituvchilari va o'quvchilari.

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" chora tadbirlari to'g'risida
2. Maktabning laboratoriya xonasiga zarur bo'lgan jihozlar hamda o'quv ko'rgazmalar, test bankini yaratish, fizikaga oid metodik qo'llanmalarga bo'lgan talablarini o'rganish
3. O'quvchilar bilan suxbatlashish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 19.03.2021 yildagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarorining mazmun mohiyati, amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida maktab direktori L.Meyliyeva so'zga chiqib, kirish so'zi bilan ochib berdi. "Prezidentimiz tomonidan fizika fanlari rivojiga berilayotgan e'tibor, chiqarilayotgan qaror, farmonlarning nechog'lik samarali bo'layotganligi haqida to'xtalib o'tdi. Ushbu ixtisoslashgan maktab fizika fanidan o'quv xonalari laboratoriya jihozlari, o'quv ko'rgazmalari bilan ta'minlangan. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti professor o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'quvchilarni darslarda yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yangi metodlar bilan almashishlar, universitetning o'qituvchilari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, fakultet tasarrufiga olingan viloyatdagi tayanch maktablar o'rtasida fan olimpiadalarini yo'lga qo'yish, yanada kuchaytirish, fakultet tasarrufiga olingan viloyatdagi tayanch maktablar o'rtasida fan olimpiadalarini yo'lga qo'yish, har oy o'quvchilar bilimini baholash maqsadida test

bankini yaratish, xomiylik tizimini yo'lga qo'yish, amaliyot uchun ekskursiyalar tashkil etish va laboratoriya xonasini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lishini o'z fikrida bayon qildi.

So'ngra institutning Aniq va tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi K.Pardayeva tomonidan "Quyosh fotoenergetikasidan foydalanishning ahamiyati" mavzusida "Ochiq mahorat darsi" bo'lib o'tdi. O'quvchilarga mavzu yuzasidan tushunchalar berildi. Darsda maktabning fizika fani o'qituvchilari va o'quvchilari o'zini qiziktirgan savollariga javob oldi. Ochiq mahorat darsi davomida qatnashuvchilarga "Tabiiy energiya manbalari" nomli videorolik taqdimoti namoyish etildi. Taqdimotdan so'ng o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan qiska savol-javoblar bo'lib o'di. Darsda turli xil zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanildi. Ochiq mahorat darsi juda qiziqarli tarzda tashkil etildi.

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" chora tadbirlari mazmun mohiyati ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Maktabda test bankini yaratish, fizikaga oid metodik qo'llanmalarga bo'lgan talablarini ishchi guruh tavsiyasi sifatida qabul qilinsin.
3. O'qituvchilar va o'quvchilarni ilmiy savodxonligini oshirishga qaratilgan "Mahorat darslari" o'quv yili davomida amalga oshirilsin.

Denov tuman 1-son ixtisoslashtirilgan
maktab direktori:



L.Meyliyeva